


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (*tarmoqlar bo'yicha*) bakalavriat
ta'lim yo'naliشining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent moliya instituti.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r

bet

1. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> bakalavriat ta'lim yo'nališining umumiyl tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nališi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim yo'nališi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1. 60410100 – <i>Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)</i> ta'lim. yo'nališi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	9
2.4. Kvalifikatsiya.....	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i.....	11

1. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60410100 – *Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) – “Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar faoliyatining barcha shakllari, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo‘yicha iqtisodiy, tashkiliy va moliyaviy masalalar yechimlarini, ya’ni likvidlilik va to‘lov qobiliyatini ta’minlash bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho‘ba korxonalar, vakolokxonalar, filiallar va boshqa tarkibiy bo‘limlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisob yuritish jarayonlari majmuasi;

- Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, vazirliklar, davlatning maqsadli jamg‘armalari, agentliklar va idoralar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari va boshqalar.

1.2.3. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- moliyaviy-iqtisodiy;
- hisob, tahlil va nazorat;
- tashkiliy-boshqaruv va xizmat ko‘rsatish;
- axborot-tahlil;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik;
- mehnat faoliyati.

1.2.4. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda:

- Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar faoliyati va u bilan bog‘liq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va me’yoriy hujjatlarini bilish va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;
- biznes rejalarini ko‘rib chiqish va ular samaradorligini baholash;
- moliya bozorida vositachilik qilish;
- mijozlarni to‘lovga qobiliyatini baholash usullarini qo‘llash;
- Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqishi hamda belgilash qobiliyatiga ega bo‘lish.

Hisob, tahlil va nazorat faoliyati:

- buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish usullarini bilish;
- hisob ma’lumotlarini qilish va umumlashtirish;
- buxgalteriya hisobi va audit tizimi faoliyatining xalqaro amaliyot mezonlari, me’yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- buxgalteriya hisobi va audit tizimidagi ko‘rsatkichlar dinamikasi va o‘zgarish tendensiylarini tahlil qilish;
- buxgalteriya hisobi va audit faoliyatiga doir moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni tahlili qilish;
- buxgalteriya hisobi va audit xizmatlarini ko‘rsatishda dasturiy vositalardan foydalana bilish.

Sug‘urta sohasida:

- sug‘urta mahsulotlarini sotishni va uning hisobini tashkil etish;
- sug‘urtada sug‘urta mahsulotlarini sotishning turli texnologiyalarini joriy etish;
- sug‘urta shartnomalarini tuzish va uning hisobini tashkil qilish;
- sug‘urta hodisasini ro‘yxatdan o’tkazish va uning hisobini tashkil qilish;
- sug‘urta kompaniyalarining buxgalteriya hisobini yuritish va hisoboti tuzish.

Bank sohasida:

- bank xizmatlari hisobini tashkil qilish;
- hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish;
- kredit operatsiyalarini amalga oshirish;
- qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirish;

- banklarda faktoring va lizing operatsiyalarini amalga oshirish;
- bank ichidagi operatsiyalarini amalga oshirish.

Tashkiliy-boshqaruv va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- buxgalteriya hisobi xizmati, audit va nazorat tizimida belgilangan qonunchilikka ko'ra boshqaruv tartibini bilish;

- buxgalteriya hisobi xizmatini zamonaviy iqtisodiy bilimlar hamda sohaga oid xalqaro standartlarni qo'llash asosida tashkil etish va boshqarish;

- buxgalteriya hisobi xizmati, audit va auditorlik tizimida boshqaruv va xodimlarni boshqarish strategiyalarini bilishi va amaliyotda qo'llay olish;

- buxgalteriya xizmati va audit faoliyatini tashkil etishdagi muammolarning yechimlarini amaliyotga tadbiq etish;

- buxgalteriya hisobi va audit xizmatini ko'rsatish bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- buxgalteriya hisobi xizmati va audit sohasini milliy va xalqaro standartlar talablariga mos rivojlanib borishini ta'minlash borasida ishlarni amalga oshirish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- tashkilot mablag'laridan samarali foydalanish, ularni nazorat qilish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma'lumotlarni toplash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- buxgalteriya hisobi xizmati va audit faoliyatni rejalshtirish va monitoring qilish uchun ma'lumot toplash, tashkilotning ichki nazorat tizimini yaratish va uning samarali ishlashini ta'minlash;

- tashkilot hujjatlashtirish va hujjatlar aylanishini raqamlashtirish, turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- tashkilot investitsiyalari samaradorligini baholash;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish, buxgalteriya hisobini mazkur standartlar talablari asosida yuritishga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yituqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

- tarmoqlar va sohalarda auditning xalqaro standartlari talablari asosida nazoratni ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

- ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy-amaliy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ularni tizimlashtirish;

- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yituqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- innovatsiyaga asoslangan yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- biznes yuritish natijalari asosida shakllangan hisobotlarni tegishli davriy nashrlarga taqdim etish.

Mehnat faoliyatida:

- buxgalteriya hisobini tashkil etish maqsadida xo'jalik yurituvchi subekt va uning alohida bo'linmalari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni toplash va tahlil qilish;

- buxgalteriya hisobining tashkiliy shaklini tanlash bo'yicha takliflar tayyorlash;

- tasdiqlangan tashkiliy shaklga muvofiq buxgalteriya hisobini tashkil etish;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ichki tashkiliy va ma’muriy hujjatlarini, shu jumladan buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlarini buxgalteriya xizmati xodimlari e’tiboriga etkazish va ularni qo‘llash tartibini tushuntirish;
- buxgalteriya xizmatining joriy faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish;
- ichki nazorat, davlat (shahar) moliyaviy nazorati, ichki va tashqi audit, audit, soliq va boshqa tekshiruvlar jarayonida buxgalteriya xizmati xodimlarining o‘zaro hamkorligini muvofiqlashtirish;
- buxgalteriya hujjatlarini saqlash jarayonini tashkil etish, belgilangan tartibda arxivga o‘tkazilishini ta’minlash;
- maqsadlarga erishish va buxgalteriya xizmatining vazifalari bajarilishini ta’minlash;
- xodimlarga buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayonini tartibga soluvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektning standartlarini qo‘llash jarayonida maslahatlar berish;
- buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarni tuzish bo‘yicha ishlarni bajarish tartibi va muddatlarini rejalashtirish, belgilangan talablarga riosa etilishi ustidan nazoratni tashkil etish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlariga kiritilgan hisobotlarning raqamli ko‘rsatkichlarini, shuningdek tushuntirish xati va tushuntirishlarni shakllantirish jarayonini tashkil etish;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlariga kiritilgan hisobotlarning raqamli ko‘rsatkichlarini shakllantirishning to‘g‘riligini nazorat qilish;
- buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlari bilan tanishish, xo‘jalik yurituvchi subekt rahbari tomonidan tasdiqlanishi va imzolanishini ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlari taqdim etilishini ta’minlash.

2. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- makro va mikroiqtisodiy jarayonlarni bilishi, biznesni tashkil qilish, yuritish va korporativ boshqarish bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi;
- tashkilotlarda buxgalteriya hisobining o‘rni, nazorat, xavfsizlik, audit tushunchalarini bilishi;
- xodimlar bilan ishslash, rahbarlik va boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- xarajatlar hisobi, xarajatlar klassifikatsiyasi, byudjetlashtirish, kalkulyatsiya qilish usullarini bilish;
- buxgalteriya hisobini yuritish va unga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilish, moliyaviy hisobotni shakllantirishda axborotlarni yig‘ish usullarini qo‘llay olishi, moliyaviy va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni shakllantirishni bilish;

- huquq va huquq tizimini, shartnomalarni shakllantirish, mehnat shartnomasi, tashkilot ustavini shakllantirish, to‘lov qodirlik bo‘yicha me’yorlar va qonun hujjatlari normalarini bilishi;
- respublikamiz soliq tizimi, soliq turlari va ularning mohiyati, hisoblanishi, to‘lanishi va hisobini yuritishni bilishi;
- buxgalteriya hisobi ob’ektlari bo‘yicha buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida hisob yuritish va moliyaviy hisobotni shakllantirishni bilishi;
- audit va auditorlik tekshiruvi, uning turlari, o‘tkazish tartibi hamda natijalarini rasmiylashtirish tartibini bilishi;
- mutaxassislikka oid iqtisodiy kategoriya va qonunlar, iqtisodiy jarayon va hodisalar mohiyatini tushunish, iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish mexanizmlarini bilishi;
- mikroiqtisodiyotning asosiy kategoriyalari, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ularni hisoblash orqali pul-kredit, byudjet-soliq va tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- menejment asoslari, jumladan moliyaviy menejmentni bilishi, qarorlarni qabul qilish va ular ijrosi nazoratini olib borishi, bozor va unga xos qonunlar va xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- iqtisodiyot sub’ektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish hamda moliyaviy ko‘rsatkichlarini aniqlashi.

2.3. Umumiylar umumiylar va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Bakalavrular umumiylar umumiylar va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarini egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiylar umumiylar va kasbiy kompetensiyalarini egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarini ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

**2.3.1. 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi
bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	O‘quv bloklari, fanlar va faoliyat turlarining nomlari
1	2
1.00 Majburiy fanlar	
1.01 O‘zbekistonning eng yangi tarixi	
1.02 Falsafa	
1.03 Iqtisodiyot nazariyasi	
1.04 Matematika 1	
1.05 Matematika 2	
1.06 Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	
1.07 O‘zbek(rus) tili	
1.08 Xorijiy til	
1.09 Dinshunoslik	
1.10 Biznesda buxgalteriya hisobi	
1.11 Mikroiqtisodiyot	
1.12 Statistika	
1.13 Moliya asoslari	
1.14 Moliyaviy hisob	
1.15 Buxgalteriya hisobiga kirish	
1.16 Boshqaruv hisobiga kirish	
1.17 Moliyaviy hisobot	
1.18 Auditga kirish	
1.19 Iqtisodiy tahlil	
1.20 Moliyaviy hisobot 1	
1.21 Soliqlar va soliqqa tortish	
1.22 Moliyaviy tahlil	
1.23 Boshqaruv hisobi	
1.24 Audit	
1.25 Xizmat ko‘rsatish sube’ktlarida buxgalteriya hisobi	
1.26 Auditning xalqaro standartlari	
2.00 Tanlov fanlar	
2.00 Tanlov fanlar	
Malakaviy amaliyot	
Yakuniy davlat attestatsiyasi	

* Мазкур таълим йўналиши бўйича семестрлар кесимида кредитлар миқдори “Олий таълим давлат таълим стандарти. Асосий қоидалар”га мувофиқ Тошкент давлат иқтисодиёт университети ва Тошкент молия институти томонидан мустақил белгиланади ҳамда академик мобилик жараёнида ўзаро тан олинади.

2.4. Kvalifikatsiya: Buxgalter - iqtisodchi, auditor.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, buxgalteriya hisobi va audit, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent moliya instituti

Rektor




I.Z. Teshabaev

2023 yil «_____»

M.O'.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor




K.Sharipov

2023 yil «_____»

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor



Sh.Yakubov

2023 yil «_____»

M.O'.

**O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy
assotsiatsiyasi**

Kengash raisi



M.Tulaxodjaeva

202 yil «_____»

M.O'.

O'zbekiston Auditorlar Palatasi

Kengash raisi



N.Karimov

202 yil «_____»

M.O'.

Toshkent moliya instituti 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (*tarmoqlar bo'yicha*) bakalavriat ta'lim yo'naliشining malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent shahri

" " 2023 y.

Biz, quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.A.Sharipov, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi Kengash raisi M.M.Tulaxodjaeva, O'zbekiston Auditorlar Palatasi Kengash raisi N.F.Karimov va Toshkent moliya instituti rektori T.Z.Teshabaev bilan birgalikda TMIda ishlab chiqilgan quydagi bakalavriat ta'lim yo'naliشining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (*tarmoqlar bo'yicha*) bakalavriat ta'lim yo'naliشi.

Malaka talablari hamda o'quv rejaning ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sun farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sun, 2017 yil 27 iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sun, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sun, 2018 yil 19 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-sun, 2020 yil 24 fevraldagagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sun Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-sun Farmoyishi hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Bakalavriat ta'lim yo'naliشi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

K.Sharipov

O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar
milliy assotsiatsiyasi Kengash raisi

M.Tulaxodjaeva

O'zbekiston Auditorlar Palatasi
Kengash raisi

N.Karimov

Toshkent moliya instituti rektori

T.Teshabaev